



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Тошкент шаҳри

Toshkent shahar, 100011, Abay ko'ch., 6-uy Tel: +998 71 244-25-67, Faks: +998 71 244-25-66, e-mail: dav_ekspertiza@mail.ru www.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: SHOBUTAEV BOBIR A

Sana: 03-06-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 45398

Obyekt nomi «Toshkent shahar, Uchtepa tumani, "Ko'hna Cho'ponota" MFY hududidagi 252-sonli MTM binosini rekonstruktsiya qilish.»

Buyurtmachi - Toshkent shahar hokimiyati "Yagona buyurtmachi xizmati" IK.

Bosh loyihachi - "Comfort Project Today" MChJ.

Litsenziya AL-000111-sonli, 24.07.2019 y. Qurilish vazirligi.

Moliyalashtirish manbai - Mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan.

Bosh pudratchi - Tanlov asosida aniqlanadi.

Qurilish turi Rekonstruktsiya.

Murojaat raqami: № 43842

1. Loyihalash uchun asos

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi "2022-2026-yillarda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-172 son qarori.

Toshkent shahar hokimining 2022-yil 29-martdagi 300-14-0-Q/22-son qarori.

Toshkent shahar hokimi tomonidan 2021-yilda tasdiqlangan "Toshkent shahrida "Obod mahalla" dastur doirasida 2022-yilda amalga oshiladigan chora-tadbirlarning moliyaviy qiymatlari va manbalarining Manzilli ro'yxati.

Toshkent shahar hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" IKning 2022-yildagi Manzilli ro'yxati.

Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2022-yil 11-maydagi 1726-1726262-42122-son "Arxitektura rejalashtirish topshirig'i" (joylashtirish va muhandislik tarmoqlarini loyihalashtirish uchun)

2022-yilda Toshkent shahar hokimligi tomonidan tasdiqlangan va Toshkent shahar Maktabgacha ta'lim boshqarmasi bilan kelishilgan ishchi loyihaga loyihalash topshirig'i.

Fazoviy Konstruksiyalar, Binolar va Insootlar Zilzilabardoshligi Ilmiy Ishlab Chiqarish Laboratoriyasi MChJ Ilmiy Birlashma tomonidan 2022-yilda berilgan binolar joriy holati bo'yicha yuk ko'taruvchi qurilish konstruksiyalarini texnik instrumental va laboratoriya tadqiqotlar xulosasi.

"Asia Geoinnovation" MChJ tomonidan 2022-yilda berilgan Qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risida xulosasi.

"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ "Davlat va shartnovaviy xizmatlarni rivojlantirish" filiali tomonidan 20.05.2022-yilda berilgan 01/680-son texnik shart.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra «Ishchi loyiha» bo'yicha taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari:

- loyiha tushuntirish xati;
- arxitektura va qurilish loyihaviy yechimlari bo'yicha chizmalar;
- temirbeton konstruktiviy loyihaviy yechimlari bo'yicha chizmalar;
- videokuzatuv tizimi loyihasi bo'yicha chizmalar;
- yong'in signalizatsiyasi tizimining loyihaviy yechimlari bo'yicha chizmalar;
- yong'in xavfsizligi tizimi loyihasi bo'yicha chizmalar;
- suv va oqova suv tarmoqlari tizimlarining loyihaviy yechimlari bo'yicha chizmalar;
- tashqi suv va tashqi oqova suv tarmoqlari tizimlarining loyihaviy yechimlari bo'yicha chizmalar;
- havoni almashtirish, shamollatish tizimlari, isitish tizimining loyiha yechimlari bo'yicha chizmalar;
- elektr ta'minoti va elektr yoritish tizimining loyiha yechimlari bo'yicha chizmalar;
- tashqi elektr ta'minoti va tashqi elektr yoritish tizimining loyiha yechimlari bo'yicha chizmalar;
- qurilish xarajatlarining umumiy smeta hisob-kitoblari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

Qurilish maydonining o'ziga xos xususiyatlari

- Tuproqning muzlash chuqurligi-0,7 metr;
- Qurilish maydoning zilzilabardoshligi-8 ball.
- Normativ qor qatlami vazni-50kg/m².
- Normativ shamol bosimi-38kg/m²

Arxitekruta-rejalashtirish yechimi:

Mukammal ta'mirlashga mo'ljallangan MTM binosi Uchtepa tumani, "Ko'hna Cho'ponota" hududida joylashgan. Bosh reja bo'yicha hududda 360 o'rinli MTM binosi, ovqatlanish zali, soyabonli o'yin maydonchalari, bolalar o'yin maydonchalari, sport maydonchasi, suzish havzasi, omborxona, qozonxona, transformator nimstantsiyasi, chiqindi saqlash joyi rejalashtirilgan.

Bino va inshootlardan tashqari bo'sh maydonlar obodonlashtiriladi va ko'klamzorlashtiriladi, yo'laklar va maydonchalar beton qoplamasi bilan qoplanadi, gazonlar tashkil qilinadi, qor va yomg'ir suvlari uchun irrigatsiya quvirlari va ariqlar o'rnatiladi, kichik arxitektura shakllari o'rnatiladi.

Mukammal ta'mirlanayotgan MTM binosi 3 ta asosiy blokdan iborat.

A-Blok- ikki qavatli, yerto'lasiz, to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, o'qlar bo'yicha o'lchamlari 73,0x14,9 metr. Binoning poldan shiftgacha balandligi 3,3 metrni tashkil qiladi.

B-Blok- ikki qavatli, yerto'lasiz, to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, o'qlar bo'yicha o'lchamlari 12,0x12,0 metr. Binoning poldan shiftgacha balandligi 3,3 metrni tashkil qiladi.

V-Blok- ikki qavatli, yerto'lasiz, to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, o'qlar bo'yicha o'lchamlari 13,3x11,2 metr. Binoning poldan shiftgacha balandligi 3,3 metrni tashkil qiladi.

Loyiha va loyihalash topshirig`iga asosan binoda quyidagi ishlar bajariladi:

Eski ichki devorlar o`rniga yangi devorlar o`rnatiladi, devorlar va shiftlar tozalanib yangi suvli emulsiya bo`yog`i bilan bo`yaladi, mavjud pol qatlamlari, plintus, zina tutqichlari, deraza, eshiklar olib tashlanib, yangisiga almashtiriladi. Yuvinish xonasi va boshqa xonalardan sapol plitkalar qoplanadi, shift qoplamlari yangisiga almashtiriladi.

Binoning tashqi bezatish tishlarida tunukabond, tekislash ishlari va devor buyog`i bilan buyash ishlarini o`z ichiga oladi.

Texnika-iqtisodiy ko`rsatkichlari.

Binoning qurilish maydoni – 1481,5 m²;

Binoning umumiy maydoni – 2553,67 m²;

Binoning umumiy xajmi – 11478,2 m³;

Konstruktiv yechimlar.

Bloklarning asosiy yuk ko`taruvchi konstruktsiyalari bo`yicha loyihaviy yechimlari quyidagicha:

Poydevorlar- tayyor temirbetondan;

Ustunlar-quyma temirbeton;

To`siqlar- quyma temirbetondan;

Tashqi devorlar-panellik;

Zinapoyalar-quyma temirbetondan;

Tom- profnastildan;

Bino atrofi bo`ylab yo`lakcha loyihalashtirilgan.

Yong`inga qarshi texnik yechimlar:

Binoning yong`inga chidamlilik darajasi II tipga mansub.

Konstruktiv yong`in xavf sinfi -C1.

Favqulotda chiqishlar soni standart talablariga javob beradi.

Devorlar va shiftlar yonmaydigan materiallar bilan bezatilgan.

Loyihada avtomatik yong`in signalizatsiyasi va odamlarni yong`indan ogohlantirish tizimi hamda “CHIQISH” belgilari bilan jihozlangan.

Xarajatlar smeta hisob-kitob hujjatlari.

Binoning yakuniy smeta xarajatlari O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-son qarori hamda ShNQ 4.01.16-09 me`yorlariga asosan ishlab chiqilgan.

Loyiha tashkiloti tomonidan hisoblab aniqlangan binoning ekspertiza ko`rigiga qadar dastlabki narxi buyurtmachining boshqa xarajatisiz 15% QQS bilan hisoblanganda –6 302 164,666 ming so`mni tashkil qiladi.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

Loyihalanayotgan binolarning kelishilgan va tasdiqlangan loyihalash topshirig`i, nuqsonlar dalolatnomasiga asosan hamda tegishli manfaatdor tashkilotlar tomonidan taqdim qilingan texnik shartlarga asosan, elektr

ta'minoti va elektr yoritish, tashqi elektr ta'minoti va tashqi elektr yoritish, yong'in signalizatsiyasi, yong'in xavfsizligi tizimi, suv va oqova suv tarmoqlari tizimlari, havoni almashtirish, shamollatish tizimlari, isitish tizimi ko'zda tutilgan.

Eslatma: Buyurtmachi tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son qarori talablariga rioya qilinsin. Ob'ekt bo'yicha muhandislik tarmoqlariga ulanish va ulardan foydalanish bo'yicha tegishli manfaatdor xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.04.2022-yildagi 200-son qarori talablariga rioya qilinsin va ushbu qarorga asosan Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi "Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining" Xulosasi olinsin.

Loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo'shimcha taklif va e'tirozlari mavjud emas.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertizaga taqdim etilgan ishchi loyihasi va smeta xarajatlari ko'rib chiqildi.

Ekspertiza jarayonida obe'ktga tegishli birlamchi hujjatlar va oraliq (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihaga asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

-ekspertiza tekshiruvi hamda ishchi loyihadagi qisman tuzatishlar bo'yicha smeta xarajatlarini joriy narxlarda qayta hisoblash natijasida QQS bilan hisoblanganda – 314 062,573 ming so'mga kamaytirildi.

Ishchi loyihaning dastlabki smeta xarajatlar hisob-kitobining kamaytirilishi yoki pasayganligi resurs smeta me'yorlari, mashina va mexanizmlarning narxlari, qurilish materiallarining narxi hamda boshqa xarajatlarni aniqlashtirish natijasida o'zgartirildi.

Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa hamda ekspertiza xulosasidagi talablar bajarilmasa ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Shartnoma bo'yicha import texnologik uskunalarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va u bilan bog'liq xarajatlar shaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan o'tkazilmadi.

Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori talablariga asosan Toshkent shahar Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi Davlat ekologik ekspertiza xulosasi olinsin va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 255-son qarori talablariq rioya etilsin.

Ishchi loyihaning asosiy qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarorida belgilangan tartibga ko'ra "Nazorat o'lchovi" natijalari bo'yicha aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son va 2022-yil 20-apreldagi 200-son qarorlari talablariga qat'iy rioya qilingan holda buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qarorining 29-bandiga asosan ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qaroriga asosan Buyurtmachi qurilishi markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan ob'ektlar boshlang'ich qiymati Davlat statistika qo'mitasining rasmiy saytiga (stat.uz) qo'yib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizmlar xizmati uchun o'rtacha narxlar hamda o'rtacha ish haqidan foydalangan holda shakllantiradi. Bundan tashqari, Buyurtmachi pudrat ishlari va qurilish materiallari bozorida marketing tadqiqotlarini o'tkazish, resurslarning davriy o'rtacha narxlarini tasdiqlash huquqiga egaligi belgilangan. Ushbu qarorning 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Eslatma: Buyurtmachi tashkiloti Toshkent shahar hokimining 2022-yil 29-martdagi 300-14-0-Q/22-son qarorining 3-ilovaga muvofiq ajratilgan limit miqdoriga qat'iy amal qilinsin hamda buyurtmachi taqdim etilgan barcha ishlarni bajarish uchun o'rnatilgan tartibda tegishli tashkilotlar bilan kelishuv bayonnomasi asosida qo'shimcha mablag` ajratilishi kelishilsin va limit miqdori qayta ko'rib chiqilsin yoki "Ishchi loyihasi" belgilangan limit miqdorida qayta maqbullashtirgan holda ishlab chiqilsin.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Toshkent shahar, Uchtepa tumani, "Ko'hna Cho'ponota" MFY hududidagi 252-sonli MTM binosini rekonstruktsiya qilish" ishlarini amalga oshirish bo'yicha tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari kelgusida kelishish hamda tasdiqlash uchun tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori, buyurtmachning boshqa xarajatlarisiz 15% QQS bilan hisoblanganda 5 988 102,093 ming so'mni tashkil etadi. Jumladan:

- qurilish materiallari va mahsulotlari, konstruksiyalar hamda uskunalar uchun sarflanadigan transport xarajatlari bilan birgalikdagi xarajatlar- 2 841 828,635 ming so'mni;
- asosiy oylik uchun ijtimoiy sug'urta to'lovlari xarajatlari bilan hisoblanganda -1 153 015,405 ming so'mni;
- mashina va mexanizmlar uchun sarflanadigan xarajatlar-127 140,644 ming so'mni;
- jihozlarning ro'yxati (texnologik vositalar) va mebel inventar jihozlar-357 725,535 ming so'mni;
- ijtimoiy sug'urta to'lovlari xarajatlari-15 468,325 ming so'mni;
- pudratchining boshqa xarajatlari (17,27%)-711 866,755 ming so'mni;
- qo'shimcha qiymat solig'i (15 %)-781 056,795 ming so'mni tashkil etadi.

Bundan tashqari "Shaffof qurilish" MAT (0,05%)-2 944,051 ming so'mni;

Tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori buyurtmachi va pudratchi o'rtasida shartnoma tuzishga asos bo'la olmaydi.

O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi 684-son Qonuni va O'zbekiston Respublkasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2022 yildagi 46-son qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq ob'ektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan yangi qurilish ishlari narxi cheklangan qiymat hisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.02.2018 yildagi 3550-son Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, ob'ektning cheklangan qiymati buyurtmachi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalarni va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKning ijobiy xulosasini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Buyurtmachiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.07.2021-yildagi 6263-son Farmonining 10-band, 9-xatboshiga asosan-"Binolar, inshootlar va muhandislik kommunikatsiyalarini kapital qurish va ta'mirlash bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridini amalga oshirish uchun xarid hujjatlari

"Loyihalarni va imort kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKga texnik topshiriq shaklida loyiha-smeta hujjatlari bilan birgalikda kiritiladi va ulardagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlari va narx parametrlarining asosiligi yuzasidan ekspertiza o'tkaziladi" deb belgilanganligini bildiramiz.

Bosh mutaxassis: Mardonov Shoxrux Isroil o'g'li

Ishtirokchi ekspertlar:

Alimjanov Muzaffar Anvarovich

RAXIMOV DILMUROD TAIROVICH

ADJIGAFAROVA REMZIYE ABLAYEVNA

Atabayev Daniyar Baxtiyarovich

Vakurova Irina Vladimirovna

Olxovskaya Viktoriya Kamilovna

Mirsaatov Mirjalol Sharapovich